

**2021- yilning yanvar-fevral oylarida  
Sirdaryo viloyatida  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**



## Dastlabki ma'lumotlar

**111,4 %**  
O'sish sur'ati

**54,4 %**  
Kichik  
tadbirkorlikning  
ulushi

### Xizmatlar sohasi

**605,1**  
**mlrd. so'm**  
Xizmatlar hajmi

**708,8**  
**ming so'm**  
Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
xizmatlar

**63,4 %**  
Korxona va  
tashkilotlar  
ulushi

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli  
xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib,  
ishlab chiqarish samaradorligini  
oshirishga yordam beradi

Sirdaryo viloyatining iqtisodiy  
holatini baholashda xizmatlar  
sohasining ko'lami, tarkibi va  
rivojlanish darajasi alohida o'rinn  
tutadi.

## Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **605,1 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **104,8 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,4 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2021- yil yanvar-fevral oylarida)

**104,8  
mlrd. so'mga**

Hajmning  
o'sishi

**605,1  
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

**111,4 %**

O'sish sur'ati



**3**

Sirdaryo viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-fevral oylarida

# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mldr. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>605,1</b>	<b>111,4</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	33,7	117,2
Moliyaviy xizmatlar	182,7	125,7
Transport xizmatlari	89,9	101,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	84,7	101,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	15,9	101,9
Savdo xizmatlari	159,1	100,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13,3	103,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	16,8	99,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11,3	103,8
Ijara xizmatlari	24,4	209,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	15,0	106,8
Shaxsiy xizmatlar	13,3	99,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,0	107,7
Boshqa xizmatlar	16,7	101,7


4

Sirdaryo viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-fevral oylarida

## Dastlabki ma'lumotlar


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **30,2 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Yuqori o'sish ijara xizmatlari (**2,0** m), moliyaviy xizmatlar (**25,7** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**17,2** %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**7,7** %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha 2020- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

## Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2021- yilning yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi, bu esa **159,1 mld. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning hajmi **141,1 mld. so'mga** yoki umumiylajmida **28,2 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari



141,1




Xizmatlar hajmi,  
mld. so'm



159,1



101,0



O'sish sur'ati, % da



100,7



2020- y. yanvar-fevral



2021- y. yanvar-fevral


## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **70,1 %** ini tashkil etdi.

### Savdo xizmatlari tarkibi

(2021- yilning yanvar-fevral oylarida)

Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosi,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda



Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda chakana savdo ulushi **67,9 %** ga yetgan.

## Dastlabki ma'lumotlar

### Tuman va shaharlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-fevral oylarida)



■ avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar

■ ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

## Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Yangiyer shahri (**86,1 %**) Sardoba (**88,4 %**), Boyovut (**88,3 %**), Guliston (**75,9 %**) va Oqoltin (**75,7 %**) tumanlariga to'g'ri keldi.



Bu ko'rsatkich Shirin shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi **18,4 %** ni tashkil etdi. Biroq, Shirin shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - **80,7 %**.

Sardoba tumanida eng kichik ulush - **2,4 %** qayd etildi.



Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosи bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Oqoltin (**13,9 %**), Xovos (**9,3 %**), Sardoba (**9,2 %**) va Mirzaobod (**7,9 %**) tumanlarida qayd etildi.



10

Sirdaryo viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.



### Moliyaviy xizmatlar

(2021- yilning yanvar-fevral oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi **182,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning hajmi **139,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **30,2 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **42,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **25,7 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning o'sish sur'ati **160,7 %** ga yetgan.



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




## Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning o'tgan davrda sug'urta xizmatlarining ulushi **4,1 %** oralig'ida qayd etildi.

### **Moliyaviy xizmatlar tarkibi** *(2021- yilning yanvar-fevral oylarida)*



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda moliyaviy xizmatlarning umumiyligi hajmining **95,2 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etdi.

12

Sirdaryo viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-fevral oylarida

## Dastlabki ma'lumotlar




Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-fevral oylarida)

2021- yilning yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi **33,7 mlrd. so'm** darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **117,2 %** ga yetdi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ushbu xizmat turi hajmi **28,2 mlrd. so'm** yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylaj hajmining **5,6 %** iga teng bo'ldi. O'sish sur'ati **116,4 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

16,2  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

16,8  
mlrd. so'm

2020- y.  
yanvar-fevral



2021- y.  
yanvar-fevral

93,8 %

2020- yilga nisbatan  
o'sish sur'atlari, % da

99,1 %

2021- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **16,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **2,8** % ni tashkil etdi. 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,1** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda xizmatlar hajmi **16,2** mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **93,8** % darajasida qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

13,5

15,9

2020- y.

2021- y.  
yanvar-fevral



O'sish  
sur'ati, % da

102,2

101,9


2020- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **2,4** mlrd. so'mga ko'paydi.

15

Sirdaryo viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2021- yilning yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,6 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yilda ularning ulushi **92,3 %** ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar-fevral

2020- y.

10,0 mlrd.  
so'm

Xizmatlar  
hajmi

125,5 %

2020- yilga  
nisbatan  
o'sish  
sur'ati

2021- y.

11,3 mlrd.  
so'm

103,8 %

2,0 %

Xizmatlar-  
ning jami  
hajmidagi  
ulushi


1,9 %

## Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### Tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-fevral oylarida)



2021- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Guliston shahri – **59,8 %** (2020- yilda – **56,4 %**) ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Oqoltin tumani – **2,0 %** (2020- yilda – **2,2 %**) qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

Tuman va shaharlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>605,1</b>	<b>111,4</b>	<b>115,6</b>
<b>shaharlar:</b>			
Guliston sh.	361,9	118,2	128,5
Shirin sh.	18,1	103,5	106,2
Yangiyer sh.	38,3	104,6	105,9
<b>tumanlar:</b>			
Boyovut	18,4	94,5	109,5
Guliston	16,8	105,2	105,4
Mirzaobod	25,5	105,1	108,4
Oqoltin	12,3	102,9	105,3
Sardoba	13,7	97,2	99,0
Sayxunobod	16,1	97,3	64,8
Sirdaryo	62,8	105,1	104,9
Xovos	21,2	102,8	108,0

## Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmogda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi

#### Hajmning o'sishi

**708,8  
ming so'm**

**111,9  
ming so'm**



**109,4 %**

#### O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **708,8** ming so'mga yetdi.

2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati **109,4 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020-yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **596,9** ming so'mni tashkil etdi.


**20**

Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar

Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtaida Guliston shahrida **3972,8** ming so'mdan Boyovut tumanida **140,9** ming so'mgacha oralig'ida kuzatildi.

### Tuman va shaharlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmining asosiy ko'rsatkichlari, ming so'm (2021- yilning yanvar-fevral oylarida)



Boyovut tumanida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

## Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2021- yilning 1- mart holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

9 909  
birlik

994  
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

111,2 %

63,4 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

Ularning umumiy sonidagi ulushi



22

Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,4 %**, sanoat **13,7 %**, qurilish **9,7 %** ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi **13,2 %** ga to'g'ri keladi.

### 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

#### Sanoat

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi

**13,7 %**


**13,2 %**

Qurilish

**9,7 %**

#### Xizmatlar

**63,4 %**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **64,8 %** ni, sanoat **13,2 %** ni, qurilish **9,7 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **12,3 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(49,0 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **9,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **6,1 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1 %** ga teng bo'ldi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.

